

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**O’SMIRLIK DAVRIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Fayzullayeva Farida Yusufjon qizi

O’zbekiston Milliy Universiteti magistri

E-mail:fayzullayevafarida6@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o’smirlik davridagi bolalarda yuz beradigan psixologik o’zgarishlar, bu o’zgarishlarning shaxslararo va oilaviy munosabatlarga ta’siri haqida so’z yuritilinadi. Maqolada o’smirlik davridagi bolalar bilan ishlashga doir tavsiyalar ham berib borilgan. Ushbu maqoladan ta’lim sohasidagi pedagog xodimlar, tarbiyachilar hamda otanonalar foydalanishlari mumkin.*

Kalit so’zlar: *o’smirlik davri,xarakter,temperament, xarakter aksentuatsiyasi, ta’lim, tarbiya,o’smir, tip,*

Abstract: *This article talks about the psychological changes that occur in children during adolescence, and the impact of these changes on interpersonal and family relationships. The article also gives recommendations on working with adolescent children. This article can be used by educational staff, teachers and parents.*

Key words: *adolescence, character, temperament, accentuation of character, education, teenager, kind.*

Har bir mamlakat va davlatning kelajakda yuksalishi albatta shu davlat va mamlakatda tug’ilib voyaga yetayotgan ta’lim-tarbiya olayotgan yosh avlodning qo’lida desak mubolag’a bo’lmaydi. Shu sababdan ham yurtimizda o’sib-kelayotgan yosh avlodning ilm olishi uchun yurtboshimiz tomonlaridan beriladigan ta’limga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan desak yanglishmagan bo’lamiz. Ayniqsa so’nggi yillarda yurtboshimiz tomonlaridan ham yoshlarning ta’lim olishiga qaratayotgan e’tiborlari ham taqsinga sazovor. Mamlakatimizning har bir hududida ta’lim maskanlarida tubdan islohatlar amalga oshirilmoqda. Bunday islohot va e’tiborlar samarasini amalda yaqqol ko’rishimiz mumkin. Jumladan, o’quvchi yoshlarimiz turli xil fanlardan dunyo miqiyosida o’tkazilayotgan olimpiadalarida erishayotgan natijalarida guvohi bo’lishimiz mumkin. Bunday islohotlarni ta’limdan tashqarida bo’lgan sohalarda ham guvohi bo’lishimiz mumkin. Masalan, sport, yosh avlodning sog’lom rivojlanishi uchun ham diqqat va e’tibor yetarli darajada. Bu islohotlar kelajakda albatta o’z samarasini bermay qo’ymaydi. Lekin bunday natijaga erishish uchun o’quvchi yoshlarda ham o’ziga yondashuvlar talab qilinadi. Ba’zi holatlarda yaratilayotgan shart sharoitlarga qaramay ayrim o’quvchi yoshlar o’zlashtirishda ortda qolish yoki og’ish kabi xususiyatlarni namoyon qiladilar. Bunday holatni yuzaga kelishi albatta bir nechta omillarga borib taqaladi.

O'smirlilik davri yosh davrlari orasida o'zining shiddatli kechishi bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farq qiladi. O'smirlilik davri 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlarga cha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. O'smirlilik-bolalikdan kattalikka o'tish davridir.[1] Yuqorida bu davrni boshqa yosh davrlaridan shiddatli kechichi bilan farqlanishini ta'kidlab o'tdik. Bunga sabab o'smirlilik davrida organizmda ham biologik, ham psixologik, hamda fiziologik jihattdan o'zharishlar yuz beradi. Bunday o'zgarishlar o'z navbatida o'smirning xulq atvorida, ruhiy holatida, xulqida ham namoyon bo'ladi. Ko'pincha og'ishlar ham aynan o'smirlilik davrida yuzaga keladi. O'smirlilik davrida ota-onalar va bolalar o'rtasida nizoli vaziyatlar yuzaga keladi. Nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishiga albatta o'smir organizimida yuz berayotgan o'zgarishlarga asosiy omil sifatida qaraladi. Ota-onalarda o'smir farzandlarida yuz berayotgan o'zgarishlar haqida ma'lumot yetishmasligi, boladagi xususiyatlarni bolalik erkaliklari sifatida e'tirof etish nizolo vaziyatlarni yanada keskin kuchayishiga sabab bo'ladi. Ba'zi ota-onalar farzandlarida ayni 13-14 yoshlarda muqarrar ravishda bo'lib o'tadigan inqirozlarni bilmaydilar. Bu yosh davrlarida bola ruhiyatiga yangi psixologik qo'shilmalar yuzaga keladi. Bu esa ularning kattalar, jumladan ota-onalar bilan bo'lgan munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Buni sezmagan ba'zi ota-onalar "bolam nihoyatda qaysar, quloqsiz bo'lib qoldi", deb o'ylaydilar va shikoyat qilishga tushadilar. Bunga qarshi o'zlaricha chora-tadbirlar belgilashlari natijasida ota-onsa va bola bir-birlarini tushunolmay qoladilar. Bolalarning ota-onalaridan bezish holatlari kuzatiladi[2]

Osmirlarda kuzatiladigan bunday holatlarga sabab xarakter aksentuatsiyasidir.

Xarakter aksentuatsiyasi - biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishidir. Xarakter aksentuatsiyasi turli darajada yengil va hatto psixopatiya darajasigacha bo'lishi mumkin.O'smirlar orasida xarakter aksentuatsiyasi ko'p (50-80%) uchraydi[3]

Xarakter aksentuatsiyasi K.Liongar hamda A.Lichko tomonidan o'rganilgan.K.Leongard o'z kuzatishlari va olib brogan izlanishlari natijasida xarakter aksentuatsiyasini shaxsda namoyon bo'lishiga qarab tiplarga ajratadi. Va yana olimning ta'kidlashicha bu holat vaqtichalik holat, ya'ni yoshga bog'liq inqiroz. Xarakter aksentuatsiyasi irsiylanmaydi. Lekin o'smirda bu holat korrektsiya qilinmas ekan aksentuatsiya bolada uzoq vaqtgacha saqlanib qolishi mumkin.

Har bir shaxsning kamol topishida u tug'ilib o'sagan insonlar davrasi, unga ta'sir etayotgan omillar muhim rol o'ynaydi. O'smirlilik katta hayotga qo'yilayotgan dastlabki qadamdir. Bu davrda o'smir ruhiyatida yuz berayotgan o'zgarishlar ko'pincha uning keljakdagi hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bu davrda ota-onalar bolalari bilan ko'proq munosabat ko'priklarini qurishlari talab etiladi. Eng avvalo bola ota-onasida o'ziga nisbatan ham jismoniy, ham ruhiy iliq munosabatga ehtiyoj sezadi. Bu davrda nafaqat oila a'zolar bilan munosabatda balki atrofdagilar bilan munosabat qurishda o'smir qiyinchiliklarga duch keladi. Qo'rquv hissi paydo bo'ladi. Bunday salbiy xususiyatlarni bartaraf etishda ota-onaning roli katta. Agar bu holatlarni yosh davriga

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

xosligini inobatga olgan holda yondashilsa ko'plab muammolarga yechim topiladi. Bundan tashqari ota-onas va ta'limga muassasasida doimir ravishda aloqa bo'lishi lozim. Yuqoridagi muammolar kuzatilayotgan o'smir va maktab psixoli va ota-onas o'rtaSIDA aloqa bo'lsa qiyin vaziyatlardan chiqib ketish osonlashadi. Ota-onas tomonidan olib borilgan tarbiya jarayoni bilan bog'liq tadbirlar bolaning fe'l-atvorini inobatga olingan holda amalga oshirilsa kutilgandan ko'ra ko'proq natijaga erishish mumkin. Ota-onalar tomonidan farzandga bildiriladigan ishonch hissi uni yanada olg'a intilishga undaydi. Avvalo farzand tarbiyasida ota-onalarning farzandlarining ruhiy holatiga salbiy ta'sir etmasdan yondashish talab etiladi. Oila a'zolarining birgalikda ko'p vaqt o'tkazishlari oilaviy munosabatlarni yanada mustahkamlashga sabab bo'ladi.

O'smirlig davrida yuz beradigan ruhiy o'zgarishlarni inobatga olgan holda pedagoglardan ham ta'limga jarayonini to'g'ri tashkil etishlari lozim. Buning uchun albatta o'smirlar bilan ham pedagoglar bilan ham maktab psixologgi ko'proq seminar va treninglar o'tkazib turishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Z.Nishonova, D.Abdullayeva, G.Baykunusova “O'smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorrektiyasi” Toshkent-2015
- 2.G'.B.Shoumarov, I.O.Haydarov,N.A.Sog'inov, F.A.Akromova, G. Solihova, G.Niyozmetova “Oila psixologiyasi” 177-178-bet. Sharq nashriyoti. Toshkent-2008
3. F.I.Xaydarov va N.I.Xalilova “Umumiy psixologiya” 384-bet.20